OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Israilova Sayera Tashpulat qizi
Tillar va maktabgacha talim kafedrasi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15287433

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada talabalarning xorijiy tillarni o‘rganishda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini innovatsion ta’lim texnologiyalar yordamida rivojlantirish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Ta’lim texnologiyalardan samarali foydalanish usullari orqali talabalar olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish imkoniyatlariga ega bo‘lishi haqida ma’lumot berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

nutq ko‘nikmalari, ta’lim texnologiyalari, ta’lim, sahifalar, joriy etish, innovatsion, amaliy, o‘quvchilar, tushunish

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены идеи и мнения о развитии навыков устной речи учащихся при изучении иностранных языков с помощью инновационных образовательных технологий. Приводится информация, что благодаря эффективному использованию образовательных технологий у студентов появится возможность применять теоретические знания на практике.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

навыки устной речи, образовательные технологии, образование, приложение, реализация, инновация, практика, учащийся, понимания.

ABSTRACT

This article presents ideas and opinions about the development of students' oral speech skills in learning foreign languages with the help of innovative educational technologies. Information is given that through the effective use of educational technologies, students will have opportunities to apply theoretical knowledge in practice.

KEY WORDS

language skills, educational technologies, Education, app, implementation, innovative, practical, learners, comprehended.

KIRISH

Yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, ularga bilim berish, ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va kengaytirish hamda turli sohalarda mehnat qilishga tayyorlash lozim. Bunda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganish muhim rol o‘ynaydi.

Xorijiy tillarni o‘qitishda o‘quvchilarning nafaqat grammatika va leksika, balki nutq ko'nikmalarini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Og‘zaki nutq ko‘nikmasi tilni aniq va to‘g‘ri tarzda ishlatishga, hamda kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda og'zaki nutq (Speaking) ko‘nikmasini rivojlantirish usullari va ularning samarali joriy etilishi to‘g‘risida batafsil so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nutqning aniq va to‘g‘ri ishlatilishi inson hayotining har bir bosqichida o`ziga xos ahamiyatga ega. Sababi til insonlarning bir biri bilan axborot almashinish vositasi, ijtimoiylashuv omili bo`lib xizmat qiladi.

Chet tilini o‘qitish metodikasining asoschisi akademik L.V.Shcherba hamda I.V.Raxmanov, A.A.Mirolyubov, V.S.Tsetlin, B.D.Arakin, Z.M.Tsvetkova va I.L.Bim lar shu sohada tadqiqot ishlarini olib borishgan. Xususan ingliz tili o‘qitish metodikasi kursining mavzusini 3 guruhga ajratish mumkin:

- Ingliz tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari;
- Ingliz tili nutq faoliyatining turlari;
- Ingliz tili o‘qitish jarayonini tashkil qilish.

Nutq ko‘nikmasi tilni amaliy darajada o‘zlashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu ko‘nikma o‘rganuvchiga tilni gapirishda, va har xil mavzularda erkin ishlatish imkonini beradi. Nutq ko‘nikmasi faqat grammatika va leksikaga bog‘liq emas, balki tilning ijodiy va ijtimoiy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Har bir xorijiy tilni o‘rganuvchi, agar nutq ko‘nikmasi yaxshi rivojlangan bo‘lsa, boshqa tilda o‘z fikrlari, ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini aniq, to‘g‘ri ravishda ifodalay oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta’minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, shuningdek, tadbiq etishning izchil usulidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib

hisoblanadi. Xorijiy tillarni innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitish til o‘rganuvchilarga o‘rganilayotgan tilga qiziqishini yanada orttiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarida foydalanish, yangi o‘qitish usullarini, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan yangicha yondashuvlardir. Bunday texnologiyalar o‘rganuvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash, o‘rganish jarayonini samarali va qulay qilishga xizmat qiladi. Og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarga jonli muloqotda ishtirok etish, turli vaziyatlarda o‘ziga ishonch bilan gapirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularning leksika va grammatika bilimlari ham takomillashadi.

Xorijiy til o‘rganuvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar:

- **Multimedia (video, audio, animatsiyalar) texnologiyalari** chet tilini o‘rganuvchilarga turli xil kommunikatsiya vositalarini ta’minlash uchun ideal vositadir. Ular orqali o‘rganuvchi o‘ziga kerakli mavzularni tinglab tushunib og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantira oladi. Masalan, video roliklar yoki audio materiallar orqali dialog, savol-javoblarni va eng muhim so‘zlashuv uslublarini o‘rganish mumkin.

Qo‘llash usuli: O‘rganuvchiga videoklip yoki animatsiya orqali hayotiy vaziyatlarni ko‘rsatish, so‘ngra o‘rganuvchidan ushbu vaziyatda gapirish yoki muammoni hal qilish uchun o‘z fikrini bildirish talab qilinadi. Bu usul, o‘rganuvchining o‘ziga ishonchini oshiradi va hayotiy leksikadan foydalanishga yordam beradi.

- **Interfaol ta’lim platformalari (Moodle, Kahoot, Quizlet, Duolingo)** Interfaol ta’lim platformalari chet tillarini o‘rganuvchilariga o‘z bilimlarini faol baholash va mukammallashtirish imkonini beradi. Bunday ta’lim platformalar orqali o‘rganuvchilar, masalan, debatlar, leksik va Grammatik savollar, rol o‘yinlari, interaktiv topshiriqlar orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qo‘llash usuli: Ўқувчиларга виртуал муҳитда турли мавзуларда саволлар ва жавоблар орқали мулоқот қилиш имконияти берилади. Shu bilan birga, interaktiv testlar orqali o‘rganuvchilarning nutq ko‘nikmalarini aniqlash, baholash va muammolarini hal qilish mumkin.

- **VR/AR ta’lim.** Virtual reallik (VR, inglizcha: virtual reality, VR, sun’iy haqiqat) yoki kengaytirilgan virtuallik (ing:augmented virtuality, AV) – bu real dunyo ob’ektlari mavjud bo‘lgan virtual haqiqat. Aralash

haqiqatga ishora qiladi . Kengaytirilgan virtuallik real va virtual obyektlarning barcha variantlari va kompozitsiyalarini qamrab oluvchi voqelik-virtuallik uzluksizligi qismidir. AV konseptsiyasi real vaqtda virtual dunyo bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan jismoniy elementlar, ob’ektlar yoki odamlar birlashtirilgan virtual makonni anglatadi. Buni turli texnologiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Bunda Videokameralar, harakat sensori bo‘lgan kameralar, kompyuter ko‘rishga asoslangan mualliflik dasturlari qo‘llanadi. Bunday texnologiyalar tilni o‘rganishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Virtual reallik orqali o‘rganuvchilar real hayotdagi vaziyatlarni amaliy tarzda “ko‘rish” yoki “jismonan” ishtirok etish orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu usul o‘quvchiga tildagi aniq so‘zlar va gapirish holatlarini turli shart-sharoitlarda amalda foydalanishadi.

Qo‘llash usuli: Til o‘rganuvchi (VR ko‘zoynak taqishi bilan) virtual muhitda mahalliy axborot markazida (sayohatda, diqqatga sazovor joylarda, oliy o‘quv muassasalarida, …) paydo bo‘lishi mumkin va xorijiy tilda so‘zlashuvchilar bilan real muloqot o‘rnatish imkoniga ega bo‘lishlari mumkin.

- **Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Twitter).** Zamonaviy internet platformalar, jumladan forumlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘rganuvchilar o‘z fikrlarini bayon qilish va boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari va shu tarzda nutq ko‘nikmalarini real hayotdagi vaziyatlarda sinab ko‘rishadi.

Qo‘llash usuli: O‘rganuvchilarga ijtimoiy tarmoqlar orqali tanlangan mavzularda postlar yozish yoki video yaratish orqali fikrlarini bildirish uchun topshiriqlar berilsa, bu ularning yozish va shu bilan birga gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA

Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, xorijiy tillarni o‘rganuvchilarga chet tilini yorqin va aniq ishlatish imkonini beradi. Multimedia, interaktiv platformalar, virtual reallik va ijtimoiy tarmoqlar kabi usullardan foydalanish o'rganuvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng samarali va zamonaviy yondashuvlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nutq jarayonlari va uni shakllanish bosqichlari Nurmatova Muxlisa Akmal qizi https://doi.org/10.5281/zenodo.8413818

2. Babayeva /Nutq o`stirish nazaryasi va metodikasi // Toshkent. 2018. - B.107.
3. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T., 2012
4. O‘.Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi “Sharq” nashiriyoti, Toshkent-2003, b-6.
5. Alekseyeva L.N. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Uchitel.-2009
6. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik 15-20 b.
7. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogic kompetentlik” O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
8. М.С.Рахматов, М.С.Норова, И.Х.Давлатов “Проблемы перспективных материалов для техники и технологии” - Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014.
9. N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva “Yangi pedagogik texnologiyalar”- Darslik, 15-20 b.